



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 12-iyun

200-10-0-F/25

Toshkent viloyati hokimiligi

“Nurafshon biznes siti” hududida tashkil etilgan sun’iy ko‘lni uzluksiz suv bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 12, 14 va 23-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 27-fevral kuni Toshkent viloyatida o‘tkazilgan sayyor yig‘ilish bayonida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 4-iyundagi VII-14-72-10-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq, viloyat hokimi o‘rinbosari Sh.Mahmudovning bildirgisini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan,

1. Viloyat mahalliy byudjetining 2025-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan “Nurafshon biznes siti” hududida tashkil etilgan sun’iy ko‘lni uzluksiz suv bilan ta’minlash maqsadida yangi kanal qurish xarajatlari uchun “Toshkentsuvqurilishinvest” davlat muassasasiga 2 100,0 mln. (ikki milliard bir yuz million) so‘m mablag‘ ajratilsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Sh.Xashimov) mablag‘ ajratish bo‘yicha “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”da tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Viloyat g‘aznachilik boshqarmasi (M.Zaripov) ajratilgan mablag‘ bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. “Toshkentsuvqurilishinvest” davlat muassasasi (O.Islomov) ajratilgan mablag‘ni belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlasin.

5. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (O.Odilov) ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

6. Mazkur farmoyish ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari O.Tursunov va viloyat hokimi o‘rinbosari Sh.Mahmudovlar zimmasiga yuklatilsin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev